# III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI



2022- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) umumiy hajm 24 595,8 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 104,1 %, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 23 633,7 mlrd. so'mni (103,9 %), o'rmonchilik xo'jaliklari 825,6 mlrd. so'mni (102,7 %), baliqchilik xo'jaliklarida 136,5 mlrd. so'mni (145,2 %) tashkil qildi.

Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l (110,7 %), Nurafshon (114,8 %), Ohangaron (113,9 %) va Olmaliq (110,8 %) shaharlarida kuzatildi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Chinoz (100,9 %) va Parkent (101,2 %) tumanlarida nusbatan past o'sish sur'atlari bilan yakunlandi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda hududlarning ulushi**

| | *2022- yil yanvar-sentabr, mlrd. so‘m* | *O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da* | *Umumiy hajmda hududlarning ulushi, %da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **24 595,8** | **104,1** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 67,0 | 114,8 | 0,3 |
| Olmaliq | 64,4 | 110,8 | 0,3 |
| Angren | 256,0 | 103,1 | 1,0 |
| Bekobod | 288,8 | 104,4 | 1,2 |
| Ohangaron | 51,9 | 113,9 | 0,2 |
| Chirchiq | 98,8 | 105,8 | 0,4 |
| Yangiyo‘l | 35,0 | 130,8 | 0,1 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 1 779,6 | 101,5 | 7,0 |
| Ohangaron | 1 081,2 | 103,8 | 4,4 |
| Bekobod | 2 282,9 | 106,1 | 8,7 |
| Bo‘stonliq | 1 945,9 | 104,7 | 8,2 |
| Bo‘ka | 1 402,9 | 103,7 | 5,3 |
| Quyi Chirchiq | 1 455,7 | 103,8 | 6,0 |
| Zangiota | 1 912,5 | 104,3 | 7,5 |
| Yuqori Chirchiq | 1 475,4 | 103,9 | 5,9 |
| Qibray | 1 367,8 | 104,0 | 5,7 |
| Parkent | 1 664,8 | 101,2 | 8,0 |
| Piskent | 1 543,8 | 103,8 | 5,9 |
| O‘rta Chirchiq | 1 623,6 | 102,1 | 6,4 |
| Chinoz | 1 319,3 | 100,9 | 5,6 |
| Yangiyo‘l | 1 354,1 | 104,0 | 5,9 |
| Toshkent | 1 211,5 | 103,8 | 5,3 |

**Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklarining ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) hajmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi**

| | *2022- yil yanvar-sentabr, mlrd. soʻm* | *Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, %da* | *Umumiy hajmda kichik biznes ulushi, %da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **23 310,7** | **103,4** | **90,6** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 64,2 | 114,8 | 100,0 |
| Olmaliq | 62,9 | 111,0 | 99,8 |
| Angren | 247,0 | 103,3 | 97,0 |
| Bekobod | 286,4 | 104,4 | 99,5 |
| Ohangaron | 50,3 | 114,2 | 98,6 |
| Chirchiq | 96,9 | 105,9 | 99,9 |
| Yangiyoʻl | 33,2 | 130,7 | 99,8 |
| *tumanlar:* | 0,0 | | |
| Oqqoʻrgʻon | 1 729,8 | 101,3 | 89,9 |
| Ohangaron | 1 032,8 | 102,8 | 94,7 |
| Bekobod | 2 172,9 | 106,6 | 82,7 |
| Boʻstonliq | 1 859,9 | 104,5 | 94,8 |
| Boʻka | 1 340,7 | 103,7 | 96,0 |
| Quyi Chirchiq | 1 282,2 | 101,7 | 72,9 |
| Zangiota | 1 857,9 | 103,9 | 91,3 |
| Yuqori Chirchiq | 1 418,2 | 103,0 | 97,1 |
| Qibray | 1 314,6 | 103,6 | 95,1 |
| Parkent | 1 626,6 | 100,9 | 99,5 |
| Piskent | 1 450,0 | 102,9 | 82,0 |
| Oʻrta Chirchiq | 1 529,4 | 100,9 | 85,7 |
| Chinoz | 1 251,7 | 100,1 | 96,8 |
| Yangiyoʻl | 1 252,4 | 101,7 | 88,6 |
| Toshkent | 1 205,9 | 103,3 | 97,9 |

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajm,**
*mlrd. so‘mda*




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining (xizmatlari)ning katta hajmi Bekobod tumanida – 2 172,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Bekobod va Bo‘stonliq tumanlarida mos ravishda 2 172,9 mlrd. so‘m va 1 859,9 mlrd. so‘m kuzatildi. Eng kam hajmi Yangiyo‘l (33,2 mlrd. so‘m) va Ohangaron (50,3 mlrd. so‘m) shaharlarida qayd etildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar (xizmatlar) umumiy hajmida hududlarning ulushi**




Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiy hajmida Bekobod tumanining ulushi 9,4 %ni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Bo‘stonliq (8,1 %), Zangiota (7,9 %) va Oqqo‘rg‘on (7,3 %) tumanlari keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Yangiyo‘l (0,1 %), Ohangaron (0,2 %) va Nurafshon (0,3 %) shaharlarida qayd etildi.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2022- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘sishi 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,4 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 99,9 %ni hamda chorvachilik mahsulotlari 106,5 %ni tashkil qildi.

**Dehqonchilik**. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 800,3 ming tonna sabzavot (2021- yilning shu davriga nisbatan 100,5 %) yig‘ib olindi.

Bundan tashqari, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 302,8 ming tonna kartoshka qazib olindi, 91,6 ming tonna meva va rezavorlar yetishtirildi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Sabzavot (tonna)**




**Kartoshka (tonna)**




Yetishtirilgan sabzavot ekinlarining yuqori ko‘rsatkichlari Bekobod (140 366,5 tonna), Zangiota (93 115,2 tonna) va Oqqo‘rg‘on (85 375,8 tonna) tumanlarida tashkil etgan bo‘lib, past ko‘rsatkichlar Olmaliq (1 118,2 tonna) , Nurafshon ( 1 212,0 tonna), Ohangaron (1 391,9 tonna) shaharlariga to‘g‘ri keldi. Kartoshka qazib olish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlari Quyi Bo‘stonliq (22 550,7 tonna), Bekobod (20 128,3 tonna) va Zangiota (14 594,7 tonna) tumanlarida tashkil etgan bo‘lib, past ko‘rsatkichlar Olmaliq ( 250,6 tonna), Ohangaron (512,5 tonna), Yangiyo‘l (616,2 tonna) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

**Chorvachilik**. 2022- yilning 1- oktabr holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,4 %ga (jami 925 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,1 %ga (420 ming bosh), qo‘y va echkilar 105,9 %ga (1 085 ming bosh), otlar 101,7 %ga ( 54 ming bosh), parrandalar 100,4 %ga (15 mln. boshga) ko‘paydi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 81,7 %ni, sut ishlab chiqarishda 96,9 %ni, tuxum ishlab chiqarishda 63,6 %ni tashkil etdi.

**2022- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni**

**Qo‘y va echkilar (ming bosh)**




**Parrandalar (ming bosh)**



Eng koʻp qoʻy va echkilar Boʻstonliq (90,8 ming bosh), Bekobod (80,2 ming bosh) va Boʻka (73,1 ming bosh) tumanlarida boʻlsa, aksincha past koʻrsatkichlar Yangiyoʻl (2,5 ming bosh), Chirchiq (3,0 ming bosh) va Ohangaron (3,3 ming bosh) shaharlariga toʻgʻri keldi.

Parrandalar soni boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Zangiota (2 207,9 ming bosh), Boʻstonliq (1 997,7 ming bosh), Qibray (1 660,6 ming bosh) va Yuqori chirchiq (1 470,4 ming bosh) tumanlarida boʻlsa, aksincha past koʻrsatkich Yangiyoʻl (7,2 ming bosh), Nurafshon (10,7 ming bosh) va Olmaliq (12,4 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

**2022- yil 1- oktabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *Ming.bosh* | *Oʻsish surʼati, %da* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **925,6** | **102,4** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xoʻjaliklari | 81,1 | 105,3 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari | 801,3 | 102,0 |
| qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 43,2 | 104,8 |
| **Ulardan sigirlar** | **420,1** | **102,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xoʻjaliklari | 25,1 | 100,6 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari | 382,1 | 102,3 |
| qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 12,9 | 100,2 |
| **Qoʻy va echkilar** | **1 085,6** | **105,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xoʻjaliklari | 341,5 | 111,3 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari | 679,6 | 100,6 |
| qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 64,5 | 149,9 |
| **Otlar** | **54,8** | **101,7** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xoʻjaliklari | 10,1 | 106,6 |

| | *Ming.bosh* | *O'sish sur'ati, %da* |
|---|---|---|
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 41,9 | 101,2 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2,8 | 93,9 |
| **Parrandalar (ming bosh)** | **15 592,1** | **100,4** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xo'jaliklari | 217,9 | 72,4 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 8 479,0 | 100,8 |
| qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 6 895,2 | 101,1 |

**Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo'jaliklar toifalarining ulushi**




Fermer xo'jaliklari
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 86,6 %ni, fermer xo‘jaliklarida esa 8,8 %ni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 90,9 %ni va 6,0 %ni, qo‘y va echkilar 62,6 %ni va 31,5 %ni, otlar 76,5 %ni va 18,4 %ni, parrandalar 54,4 %ni va 1,4 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 219,4 ming tonna go‘sht (2021- yilning mos davriga nisbatan 7,6 %ga ko‘p), 768,7 ming tonna sut (1,9 %ga ko‘p), 927,8 mln. dona tuxum (2,4 %ga kam) ishlab chiqarilgan.

**Yirik shoxli qoramollar**
**(ming bosh)**




**shu jumladan: sigirlar**
**(ming bosh)**



Yirik shoxli qoramollar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkich Bo‘stonliq (90,8 ming bosh), Bekobod (80,2 ming bosh) va Bo‘ka (73,1 ming bosh) tumanlarida, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (2,5 ming bosh), Chirchiq (3,0ming bosh), va Ohangaron (3,3 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

Shu jumladan, sigirlar eng yuqori ko‘rsatkich Bo‘ka (36,6 ming bosh) Bekobod (33,7 ming bosh) va Yuqori Chirchiq (32,0 ming bosh) tumanlariga, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (1,5 ming bosh) va Ohangaron (1,7 ming bosh) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *miqdori* | *o‘sish sur’ati, %da* |
|---|---|---|
| **Go‘sht (tirik vaznda), *ming t.*** | **219,3** | **107,6** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xo‘jaliklari | 5,9 | 101,5 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 173,4 | 100,7 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 40,0 | 154,6 |
| **Sut, *ming t.*** | **768,7** | **101,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xo‘jaliklari | 34,3 | 86,3 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 710,8 | 101,8 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 23,6 | 142,2 |
| **Tuxum, *mln. dona*** | **927,8** | **102,4** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xo‘jaliklari | 3,7 | 45,3 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 586,2 | 106,8 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 337,9 | 96,8 |

**Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi**
*(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan % hisobida)*




2022- yil yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xo‘jaliklar kesimida tahlil qilinganda, go‘sht ishlab chiqarish 79,0 %, sut ishlab chiqarish 92,5 %, tuxum ishlab chiqarish esa 63,2 % ulush qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hisobiga to‘g‘ri keladi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Go‘sht (ming tonna)**




**Sut (ming tonna)**




2022- yil yanvar-sentabr oylarida go‘sht ishlab chiqarish hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p ishlab chiqargan hududlar Zangiota (21,3 ming tonna), Bo‘stonliq (20,9 ming tonna) va O‘rta Chirchiq (18,3 ming tonna) tumanlari bo‘lsa, Yangiyo‘l (0,3 ming tonna), Olmaliq (0,3 ming tonna) va Nurafshon (0,4 ming tonna) shaharlarida esa kam ishlab chiqarilgan.

Bo‘stonliq (81,6 ming tonna), Yuqori Chirchiq (75,5 ming tonna), Bekobod (65,7 ming tonna) va Parkent 57,3 ming tonna) tumanlari sut ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlardan o‘rin olgan bo‘lsa, aksincha Yangiyo‘l (0,9 ming tonna) va Nurafshon (2,8 ming tonna) shaharlari sut ishlab chiqarish bo‘yicha past ko‘rsatkichlardan o‘rin egalladi.

**Tuxum (mln. dona)**




Viloyatda tuxum ishlab chiqarish bo‘yicha 2022- yil yanvar-sentabr oylarida eng yuqori ko‘rsatkich Zangiota (136,5 mln. dona), Qibray (134,4 mln.dona), Bo'stonliq (94,9 mln. dona) va O‘rta Chirchiq (81,1 mln. dona) tumanlarida, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (0,8 mln. dona), Nurafshon (1,7 mln. dona) va Olmaliq (2,2 mln. dona) shaharlarida kuzatildi.

**Fermer xo‘jaliklari**. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3 865,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 16,6 %ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

| | *yanvar-sentabr* | | | | *2021- yanvar-sentabriga nisbatan % hisobida* |
|---|---|---|---|---|---|
| | *2021- yil* | | *2022- yil* | | |
| | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %* | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %* | |
| Kartoshka | 27 754,0 | 9,9 | 23 784,0 | 7,9 | 85,7 |
| Sabzavot | 128 870 | 16,2 | 92 925 | 11,6 | 72,1 |
| Go‘sht, tirik vaznda | 5 855,0 | 2,9 | 5944,0 | 2,7 | 101,5 |
| Sut | 39 695,0 | 5,3 | 34 272,0 | 4,5 | 86,3 |
| Tuxum, mln. dona | 8 247,0 | 0,9 | 3 735,0 | 0,4 | 45,3 |

2022- yilning 1- oktabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 81,1 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 25,1 ming bosh sigir, 341,5 ming bosh qo‘y va echkilar, 10 078 bosh ot, 217,9 ming bosh parrandalar mavjudligi tasdig‘ini topdi.